



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI
2-TOM, MAXSUS SON. 2026
14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

UDK:614-614.2- 614.26

BOLALARDA TIBBIY KO'RIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH


Sultonov Ravshan Komiljonovich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Morfologik fanlar kafedrası mudiri: PhD.
ORCID ID 0009-0003-6820-1044
Email-ravshansultonov605@gmail.com



Xolboyeva Mashhura Yoqutjon qizi
Tibbiyot fakulteti Davolash ishi yo'nalishi talabasi
Email-yoqutjonovnam@gmail.com



Odiljonov Ozodbek Odiljon o'g'li
Tibbiyot fakulteti Davolash ishi yo'nalishi talabasi
Email-odiljonnorkulov0@gmail.com
ORCID ID 0009-0004-5765-8548



Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda tibbiy ko'rik samaradorligini va o'lim ko'rsatkichlarini baholashda Surxondaryo viloyati sog'liqni saqlash markazi va viloyat arxiv boshqarmasi malumotlarini 2018-2023 yillarda 18 yoshgacha bo'lgan bolalarni kasallik tarixlarining retrospektiv tahlili o'rganildi. Bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi sabablari orasida nafas olish a'zolari kasalliklari, perinatal davridagi aloxida xolatlar va tug'ma anomaliyalar yetakchilik qildi (86,6%). O'lim sabablari orasida ikkinchi va uchinchi yoshda yetakchi o'rinlarni nafas olish tizimi kasalliklari, tashqi ta'sirlar, yuqumli va parazitar kasalliklar (91,0%) tashkil etmoqda.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI
2-TOM, MAXSUS SON. 2026
14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Kalit so'zlar: Bolalar, tibbiy ko'rik, o'lim ko'rsatkichi,); erta bolalik davri, prenatal davr, nafas olish tizimi kasalliklari.

Аннотация: В данной статье изучен ретроспективный анализ детей до 18 лет в период 2018-2023 гг. по данным Сурхандарьинского областного центра здоровья и областного архивного управления в оценке эффективности медикаментозной терапии и показателей смертности. у детей. Среди причин смертности детей до года лидировали заболевания органов дыхания, особые состояния в перинатальном периоде и врожденные аномалии (86,6%). Ведущие места среди причин смертности на втором и третьем году жизни занимают заболевания органов дыхания, внешние воздействия, инфекционные и паразитарные заболевания (91,0%).

Ключевые слова: Дети, медицинская помощь, смертность); ранний детский возраст, внутриутробный период, заболевания органов дыхания.

Abstract: In this article, a retrospective analysis of children under 18 years of age in the period 2018-2023 of the data of the Surkhandarya Regional Health Center and the Regional Archives Department was studied in the assessment of the effectiveness of medical therapy and mortality rates in children. Among the causes of death of children under one year of age, diseases of respiratory organs, special conditions in the perinatal period and congenital anomalies led (86.6%). Respiratory system diseases, external influences, infectious and parasitic diseases (91.0%) take the leading places among the causes of death in the second and third years.

Key words: Children, medical care, death rate,); early childhood, prenatal period, diseases of the respiratory system.

Muammoning dolzarbligi: O'tgan asrning boshlarida ham tadqiqotchilar bolalalar ayniqsa, bir yoshgacha bo'lgan chaqaloqlar o'limini jamiyatning ijtimoiy farovonligining rivojlanishiga kata tasiri borligini aniqlaganlar.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO; English World Health Organization, WHO) va xalqaro tashkilot UNICEF (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon Bolalar Jamg'armasi) hujjatlarida o'rtacha hayot bilan birga chaqaloqlar va bolalar (hayotning birinchi besh yilida) o'limi doimiy ravishda ta'kidlanib kelinadi. Bolalar salomatligi holatining etakchi ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan bolalar o'limi mamlakatdagi demografik vaziyatni tavsiflash jarayonida muhim tarkibiy qism bo'lib, nafaqat ona va bola salomatligini muhofaza qilishning asosiy mezonini sifatida qaraladi, balki butun milliy sog'liqni saqlash tizimining ham asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.09.2017 yildagi 718-son « Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilashga, o'tkazilayotgan profilaktika tadbirlarining samaradorligi uchun mas'uliyatni oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» qarorida ham tibbiy ko'rik samaradorligini yaxshilash uchun chiqarilgan.

Tibbiy yordamning sifatini ko'rsatadigan hamda uning ustuvor yo'nalishlari va ijtimoiy maqsadlarga ajratiladigan mablag'lar miqdorini belgilaydigan eng muhim ko'rsatkichlardan biri bu – bolalar va go'daklar o'limi ko'rsatkichidir.

Bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi hozirgi davrning birinchi navbatdagi ijtimoiy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi, chunki u 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limining 89,3%ni, 14 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limining 78,5%ni, umumiy aholi o'limining 4,5%ni tashkil qiladi va aholining o'rtacha umr ko'rish darajasining keskin kamayishiga olib keladi.

Tadqiqot maqsadi: Bolalarda tibbiy ko'rik samaradorligini va o'lim ko'rsatkichlarini baholashdan iborat.

Tekshirish usullari va materiallari: Bolalarda tibbiy ko'rik natijalari va o'lim xolatlarini ayrim yosh guruhlari va jinslar bo'yicha darajasining qonuniyatlari, sabablarini o'rganish va taqqoslash uchun bitta kalendar yilida olingan ma'lumotlar representativ, ishonchli ma'lumotlarni bermasligini e'tiborga olgan holda biz tadqiqotning uchinchi bosqichida tibbiy ko'rik va bolalar o'lim sabablarini Surxondaryo viloyatida 2018-2023 yillarda 18 yoshgacha bo'lgan bolalarni yoppasiga



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI
2-TOM, MAXSUS SON. 2026
14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

retrospektiv tahlillar va kuzatishlar orqali o‘rgandik. Bolalar o‘limi sabablarini chuqurroq o‘rganish uchun Jaxon sog‘liqni saqlash tashkiloti qabul qilgan va 10-qayta ko‘rilgan kasalliklar halqaro klassifikatsiyasida (2004) qayd etilgan quyidagi yosh guruhlarini tanlab oldik va bolalar o‘limi ko‘rsatkichlarini ularga mos holda hisoblab chiqib, tahlil qildik: erta neonatal davr (hayotining 0-6 kuni); kechki neonatal (7-28 kun); posneonatal (29-365 kunlik); emizikli davr (go‘daklik, chaqaloqlik davri) (0-1yil); erta bolalik davri (hayotining 12-35 oylari), Bolalikni 1- davri (3-5 yosh), Bolalikni 2- davri (5-7 yosh), O‘smirlik davri (10-18 yoshgacha) toliq o‘rganib chiqildi.

Har bir o‘lim holati sabablariga aniqlik kiritish uchun ekspert tahlili o‘tkazildi, shundan so‘ng o‘lgan bolalar haqidagi ma‘lumotlar maxsus ishlab chiqilgan “Erta yoshdagi bolalar o‘limi sabablarini o‘rganish xaritasiga” qayd etildi.

Tekshirish natijalari: Tekshirish asosida aniqlandiki, erta yoshli bolalar o‘limi ko‘rsatkichida 1 yoshgacha vafot etgan chaqaloqlar erta yosh (1-3 yosh) guruhidagi bolalarni 89,6%ni, ikki yoshgacha 7,0 %ni va uch yoshgacha 3,5 %ni tashkil qildi. Bolalarda tibbiy ko‘rik samaradorligini va o‘lim ko‘rsatkichlarini baholash natijasida erta yosh (1-3 yosh) bolalarning 10 nafardan 9 nafari 1 yoshgacha bo‘lgan chaqaloqlar tashkil qildi. Bir yoshgacha bo‘lgan chaqaloqlar o‘lim sonini kamaytirish, aholining umumiy o‘lim ko‘rsatkichlarini kamayishiga, aholi sonining o‘shishiga, umr ko‘rish darajasini oshishiga olib keluvchi asosiy omillardan biridir.


Shu sababli go‘daklar, ya‘ni bir yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limini aloxida jinsga, kasalliklar nozologiyasiga, bolaning tug‘ilgandagi vazni bilan o‘lgan amaliy ahamiyatga egadir. Bolalar o‘limi sabablarini chuqurroq o‘rganish uchun ushbu ko‘rsatkichning yosh tuzilmasini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb qiladi.

Shunday qilinganda turli yoshlardagi bolalar o‘limi ko‘rsatkichlariga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash va maqsadga yo‘naltirilgan profilaktik chora tadbirlar majmuasini ishlab chiqish imkoniyati tug‘iladi. Hozirgi vaqtda go‘daklar o‘limi darajasi va tendensiyalarini ko‘p jihatdan perinatal va neonatal o‘lim belgilaydi.

Go‘daklar o‘limi ko‘rsatkichlari biologik omillardan biri–uning jinsiga ham bog‘liqdir. Ko‘pgina vatanimiz va chet el olimlarining ma‘lumotlariga qaraganda 100 ta o‘lgan qiz bolaga o‘rtacha 120-130ta o‘g‘il bola o‘limi to‘g‘ri keladi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va Respublikamiz tibbiyot markazlarida chaqaloqlar o‘lim ko‘rsatkichini kamaytirish uchun olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar tahlilini baholash katta ahamiyatga ega. Buning oldini olishda muhim sabab buluvchi omillarni aniqlab olish zarur.

Surhondaryo viloyati bir yoshgacha bo'lgan chaqaloqlar o'lim ko'rsatkichi



Bolalarda tibbiy ko'rik samaradorligini va o'lim ko'rsatkichlarini baholashda aniqlandiki, chaqaloqlar o'limini kelib chiqishida bir qancha a'zolar tizimi kasalliklari sabab bo'lib kelmoqda: 1-rasmda kurinib turibdiki, 1 yoshlik chaqaloqlar o'limida asosiy sabablaridan biri nafas olish yo'llari kasalliklari (30,3%), ona qornidagi davrdagi homiladorlik bilan bog'liq kasalliklar (29,8%) va tug'ma nuqsonlarning (26,5%) salmog'i katta. Bu sinf kasallikliklaridan o'lim xolatlar yalpi chaqaloqlar o'limining 86,6%ni tashkil qildi. Nafas olish tizimi kasalliklaridan go'daklar o'limi har 1000 ta tirik tug'ilganga 5,8%, ona qornidagi davrdagi homiladorlik bilan bog'liq kasalliklar 4,5%, tug'ma nuqsonlar 4,43%, yuqumli va parazitlar kasalliklar 1,54%oni tashkil qildi.

Xulosa: 1. Surhondaryo viloyatida go'daklar o'limi darajasi oxirgi 20 yil ichida 32%ga kamaydi. Go'daklar o'limi ko'rsatkichlariga bolaning yoshi kuchli ta'sir qiladi, ya'ni yosh qanchalik kichik bo'lsa, ko'rsatkich shunchalik yuqori bo'ladi. Neonatal va postneonatal davrlaridagi o'lim ko'rsatkichlari keskin bir - biridan farq qildi. Neonatal va postneonatal o'lim ko'rsatkichining nisbati 66:34ga teng. Bir yoshgacha o'lgan bolalar orasida o'g'il bolalar va qiz bolalar o'lim darajasi 120:100 nisbatiga tengdir. Ikki va uch yoshda o'lgan bolalar ichida 57 % o'g'il bolalar va 43% qiz bolalar tashkil etdi.

2. Bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi sabablari orasida nafas olish a'zolari kasalliklari, perinatal davridagi alohida xolatlar va tug'ma anomaliyalar yetakchilik qildi (86,6%). O'lim sabablari orasida ikkinchi va uchinchi yoshda yetakchi o'rinlarni nafas olish tizimi kasalliklari, tashqi ta'sirlar, yuqumli va parazitlar kasalliklar (91,0%) tashkil etmoqda.

3. Perinatal davridagi alohida holatlar va tug'ma anomaliyalarning oldini olish uchun somatik kasalligi bor ayollarga alohida e'tibor berish, xomilani erta aniqlash va ro'yxatga olish, oilaviy poliklinikalar, qishloq vrachlik punktlari va tug'ruq komplekslarida homiladorlarga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini yanada yaxshilash, ularni o'zaro mutanosib ravishda ishlashini ta'minlash alohida ahamiyat kasb qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Андреев Е.М. Неравенство в младенческой смертности среди населения современной России. Вопросы статистики. 2020;27(2):48-62. <https://doi.org/10.34023/2313-6383-2020-27-2-48-62>



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI
2-TOM, MAXSUS SON. 2026
14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

2. Маматкулов Б.М., Авезова Г.С. Врожденные аномалии как причина детской инвалидности (по материалам г. Ташкента, Узбекистан)// Журн. Наука молодых—Eruditio Juvenium -2015, №2, стр 112-115. <https://cyberleninka.ru/article/n/vrozhdennye-anomalii-kakprichina-detskoy-invalidnosti-po-materialam-g-tashkenta-uzbekistan>.
3. Баранов А.А., Альбицкий В.Ю., Намазова-Баранова Л.С. Смертность детского населения в России: состояние, проблемы и задачи профилактики. Вопросы современной педиатрии. 2020;19(2):96-106. <https://doi.org/10.15690/vsp.v19i2.2102>
4. Крючко Д.С., Рюмина И.И., Челышева В.В., Соколова Е.В., Байбарина Е.Н. Младенческая смертность вне лечебных учреждений и пути ее снижения. Вопросы современной педиатрии. 2018;17(6):434-440. <https://doi.org/10.15690/vsp.v17i6.1973>.
5. Yamaoka Y, Morisaki N, Noguchi H, et al. Comprehensive assessment of risk factors of cause-specific infant deaths in Japan. J Epidemiol. 2018;28(6):307-314. <https://doi.org/10.2188/jea.JE20160188>.
6. data.worldbank.org [Internet]. Mortality rate, infant (per 1,000 live births). The World Bank Group; 2018 [cited 2018 Nov 12]. Available from: <https://data.worldbank.org/indicator/SP.DYN.IMRT.IN>.
7. Mathews TJ, Driscoll AK. Trends in infant mortality in the United States, 2005-2014. NCHS Data Brief [Internet]. 2017 [cited 2018 Nov 12];(279):[about 1 p.]. Available from: <https://www.cdc.gov/nchs/data/databriefs/db279.pdf>
8. Ozalp HG. Trisomy 18 with multiple congenital anomalies: a rare case report. J Clin Tri Exp Invest [Internet]. July 20, 2022 [quoted October 24, 2022]; 1 (1): 28-31. <https://jctei.com/index.php/jctei/article/view/8>.
9. Akleyin E, Polat Y, Yavuz Y. Three-Year Dentition Follow-up of a Paediatric Case with Malignant Infantile Osteopetrosis: A Review of the Literature. J Clin Tri Exp Invest [Internet]. 2022 Sep. 17 [cited 2022 Oct. 24];1(2):41-8.
10. Nuritdinova G., Inakova B. & Juraeva H. (2022). Clinical and hematological picture of iron deficiency anemia in infant children born from anemia mothers. International Journal of Scientific Pediatrics, (4), 30–35. <https://doi.org/10.56121/2181-2926-2022-4-30-35>
11. Sultonov R. K., Sodiqova Z. S. o‘g‘li, BSU (2021). Dynamics of Fat Cells of the Bronchial Tree Mucosa in Postnatal Ontogenesis. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES, 2 (4), 182-184.